

BUGUNGI KUNDAGI ZAMONAVIY YOSHLARNING TARAQQIYOTI VA RIVOJLANISHI

*Buxoro viloyati Buxoro shahar
78- son DMTT psixologi
Toshev Jonibek Said o'g'li*

Annotatsiya: Bugungi kundagi zamonaviy yoshlarning taraqqiyoti va rivojlanish xususiyatlari erishilayotgan yutuqlar barkamol avlodning yetuk natijalarga erishish istiqbollari haqida qisqacha aytib o'tilgan.

Аннотация: Кратко рассматриваются особенности развития и прогресса современной молодежи, достигнутые успехи и перспективы достижения гармоничным поколением зрелых результатов.

Abstract: The progress and development characteristics of today's modern youth, the achievements achieved, and the prospects for a harmonious generation to achieve mature results are briefly discussed.

Mamlakatimiz aholisining asosiy qismini yosh yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o'z istiqboliga erisha olmaydi. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo'nalishi bo'lib qoladi", deb ta'kidlaydi Birinchi prezident I.A.Karimov. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq.

Zamonaviy yoshlarning asosiy xususiyatlari

- **Innovatsion tafakkurga ega.** Ular yangi g'oyalar yaratish, texnologiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishda faol.
- **Raqamli avlod.** Internet, kompyuter va smartfonlar yordamida bilim olish, ishlash va muloqot qilish yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan.
- **Ijtimoiy faol.** Yoshlar jamiyat hayotida, volontyorlik va ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etmoqda.
- **Global dunyoqarashga ega.** Ular xorijiy tillarni o'rganib, xalqaro tajribalarni o'zlashtirmoqda.

Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur haroitlar yaratishdan iborat.¹ Albatta, yoshlarni ijtimoiy, ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, huquq hamda majburiyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, jamiyatda munosib o'rin egallashlariga qulay sharoit yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylantirish mumkin. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki oylaridan e'tiboran yangi davlat hamda jamiyatni barpo etish bilan bog'liq kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sifatida yoshlarga oid davlat siyosati va uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan edi. Bugun g'urur bilan aytish kerakki, mamlakatimiz ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10 – 12 foizini tashkil qilmoqda. Vaholanki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich o'rtacha 3 – 5 foizdan oshmaydi. Bu mablag'lar hisobiga yurtimizda har yili yuzlab ta'lim muassasalari –maktab, kollej va litseylar, oliy o'quv yurtlari qayta ta'mirlanib, zamonaviy moddiy-texnika bazasiga ega bo'lmoqda, respublikamizning eng uzoq qishloqlarida ham sport majmualari qad rostlamoqda.

Bugungi kunda yoshlar jamiyatning eng faol, ijodkor va ilg'or qatlamini tashkil etadi. Ularning taraqqiyoti va rivojlanishi nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki mamlakatning kelajagi, iqtisodiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotining ham asosi hisoblanadi.



Rivojlanishning asosiy omillari

Zamonaviy yoshlarning taraqqiyoti quyidagi omillar bilan chambarchas bog'liq:

➤	Ta'lim	sifati:
		Raqobatbardosh bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish bugungi yoshlarning asosiy ustuvor yo'nalishidir. Raqamli

texnologiyalar, xorijiy tillar, ilm-fan va innovatsiyalarni o'zlashtirish yoshlarni global maydonda faol qiladi.

➤ **Axborot texnologiyalari:** Internet, sun'iy intellekt, dasturlash, onlayn ta'lim kabi imkoniyatlar yoshlarning tafakkurini kengaytirib, ularga o'zini rivojlantirishda cheksiz imkon yaratmoqda.

¹ Ibrohim Mingboyev Alisher o'g'li "yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ta'lim-tarbiya Berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib Chiqish usullari" <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-23-830-839>

➤ **Davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash:** O'zbekistonda ham yoshlarga oid davlat dasturlari, grantlar, startap loyihalar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi jadal rivojlanmoqda.

➤ **Madaniy va ma'naviy uyg'oqlik:** Yoshlar o'z milliy qadriyatlarini saqlab qolgan holda dunyo madaniyatiga integratsiyalashmoqda.

Zamonaviy yoshlarning asosiy fazilatlari

Bugungi yoshlar quyidagi fazilatlari bilan ajralib turadi:

- Kreativ va yangicha fikrlash
- Texnologiyalarni chuqur o'zlashtirish
- O'z fikrini erkin ifoda eta olish
- Ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik
- Global dunyoqarash va tanqidiy tafakkur

Zamonaviy yoshlarning rivojlanishi — bu raqamli tafakkur, tadbirkorlik ruhi va ijodkorlikni uyg'unlashtirish demakdir. Yangi avlod innovatsion fikrlash orqali jamiyatda ijobiy o'zgarishlar qilish salohiyatiga ega. Ularni qo'llab-quvvatlash, sifatli ta'lim va to'g'ri yo'naltirish orqali mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlash mumkin.

Ta'kidlash joizki, yurtimizda bugungi kunda tamomila yangi bo'lgan sifat bosqichida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar boshqa ulug'vor vazifalar bilan bir qatorda, yoshlarning ezgu maqsadlari, intilishlari g'oyalari va eng muhim innovatsion g'oyalarini har tomonlama izchil ravishda ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgandir. O'z navbatida demokratiyaning eng ilg'or qoidalari va qadriyatlarini faoliyatining yetakchi mezoniga aylantira olgan yoshlarimiz yurtimiz taraqqiyotining tayanchi bo'lishdek buyuk maqomga ega bo'ladilar. Umuman olganda, bugungi yuksalish davri siyosatida mamlakatimizda izchil iqtisodiy islohotlar ijtimoiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu esa hozirda intellektual jihatdan yetuk va ijodiy salohiyatli hamda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, mamlakatimizning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan yoshlarni tarbiya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirilishini nazarda tutadi. Mamlakatimizda yoshlar o'z salohiyat va intilishlarini ro'yobga chiqarishlari uchun yaratilayotgan barcha shart-sharoitlar kelgusida ularni barkamol qilib tarbiyalash, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishi, o'z innovatsion g'oyalar va tashabbuslari orqali yurt ravnaqi va Vatan tinchiligiga o'z hissasini qo'shishiga xizmat qiladi. Aynan yoshlar fuqarolik jamiyatining eng faol qismidir, masalan yoshlar turli sohalarda innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy qilishga ko'proq moslashgan bo'ladi, ular jamiyatga yangi g'oyalar va bilimlarni tashiydi hamda ularda o'z hayotini qurishga intilish kuchli bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, O'zbekiston yoshlari bugungi va ertangi kun egalari sifatida mamlakatimizda farovon hayot asoslarini barpo etishda bosh strategik resurs hisoblanadi.

Taraqqiyotga ta'sir etuvchi omillar

- **Ta'lim tizimi.** Sifatli ta'lim yoshlarning intellektual salohiyatini oshiradi.
- **Texnologik rivojlanish.** Sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, dasturlash kabi sohalar yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.
- **Davlat siyosati.** Yoshlarga oid dasturlar, grantlar va startap loyihalar ularni qo'llab-quvvatlamoda.
- **Oilaviy va ma'naviy tarbiya.** Milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va insonparvarlik hissi yoshlar kamolotida muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizning demokratik yangilanishlar yo'lidan odimlashi va taraqqiyot sur'atlari ko'p jihatdan yoshlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi holati va faolligiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa shuki: Zamonaviy yoshlarning taraqqiyoti — bu bilim, texnologiya va ma'naviyat uyg'unligidir. Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, zamon talablari asosida tarbiyalash orqali kuchli, intellektual va bunyodkor avlodni shakllantirish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yuzasidan ma'lumot. Manba: <http://yoshlar.gov.uz>
2. Ibrohim Mingboyev Alisher o'g'li "yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ta'lim-tarbiya Berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib Chiqish usullari" <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-23-830-839>
3. Zilola Baxtiyor qizi Nazarova "Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishdagi islohotlar va ularning ahamiyati" "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <http://oac.dsmi-qf.uz>
4. Umarjonov, S.S. (2021). Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o'qitishda Fahridin Roziyning ontologik qarashlarining o'rni va ahamiyat. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 1029-1038.